

OLIV TA'LIM MUASSALARIDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH TENDENSIYALARI

*Mamatkarimov Odiljon Oxundedayevich f.-m.f.d professor NamMTI
Babaxo'jaev Umarxon Samsakhodjaevich f.-m.f.n dotsent NamDU
Ismanova Odinaxon To'lqinboyevna PhD dotsent NamDU*

Annotatsiya: Ushbu ishda zamonaviy fizika fani o'qituvchilarini bilimi va mahoratiga qo'yilgan talablar keltirilgan. Yangi ta'lim standartlari asosida malaka talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash uchun fizikaviy ta'lim yo'nalishida an'anaviy ta'limdan voz kechib yangi ta'lim texnologiyalari asosida mashg'ulotlarni tashkil qilish, auditoriya va mustaqil ta'lim shakllarini izchilligini ta'minlashda muammolar va uni bartaraf etish usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim texnologiyalari, mutaxassis, fizika, mustaqil ta'lim, loyihalash, oliy ta'lim, xorijiy mamlakatlar.

Hozirgi vaqtda fan-texnologiyalarni shiddat bilan rivojlanishi, jamiyatlarning global yondashuvi, barcha sohani innovatsiyani tadbiqiga ochiqligi va raqamlashtirish ehtiyoji ta'limning barcha bosqichlaridagi pedagoglardan o'z faoliyatida yangi ta'lim texnologiyalardan samarali foydalanishni taqazo qilmoqda.

Fan va texnologiyalar rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasiga ko'ra keng miqyosdagi ta'lim texnologiyalarini qo'llay olish va undan samarali foydalanish inson kapitaliga va o'z navbatida ishlab chiqarishga jamiyatga kiritiladigan eng katta investitsiya sifatida qaralmoqda.

Jamiyat rivojlanishini hozirgi bosqichida fan va innovatsion faoliyat o'rtasida bog'lanishi kuchayib bormoqda, chunki ilmiy va amaliy bilimlarni, ayniqsa aniq va tabiiy yo'nalishdagi, hajmini ortishi yangi va zamonaviy, yuqori texnologiyalarga asoslangan, raqobatbardosh mahsulotlarni yaratilishiga sababchi bo'lmoqda. Fan - texnologiyalarni va ular asosidagi zamonaviy qurilmalarni yaratilishi bo'lajak mutaxassis va ular egallashi mumkin bo'lgan malakalarga turli zamonaviy talablarni qo'ymoqda. Tayyorlanayotgan mutaxassislarga yangi talablarni ortib borishi va yangi mutaxassislarni paydo bo'lishi nafaqat oliy ta'limga, balki ta'limni barcha bosqichlarida turli murakkablikdagi muammolarni yuzaga keltirmoqda, bu esa o'z navbatida ta'limga yangicha yondashuv kerakligini taqazo qilmoqda.

Ma'lumki aniq va tabiiy fanlar qatori fizika fundamental fanlardan biri hisoblanib ilmiy-texnik rivojlanishda asosiy o'rin tutadi. Hozirgi sharoitda barcha soha mutaxassislari kabi ishlab chiqarishni asosiy bo'g'ini bo'lgan texnik-muhandislarni soni va sifatiga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Fizika fani esa texnik muhandislik sohasidagi texnikaga oid fanlarni fundamental asosini tashkil qiladi. Bundan tashqari ushbu yo'nalishda ta'lim olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan talabalarni zamon talabiga mos mutaxassis bo'lishlari fizikadan qanchalik yuqori darajada bilim egallaganlariga bog'liqdir. Yuqoridagi talablar darajasidagi mutaxassislarni tayyorlashda albatta oliy va o'rta ta'lim muassasalaridagi fizika fani o'qituvchilarini bilimi va mahorati katta ahamiyatga ega. Shuning uchun so'nggi

yillarda dunyoda va shu jumladan respublikamizda ham universitetlarda fizik mutaxassislar tayyorlashga katta e'tibor qaratila boshladi. Buning isboti sifatida "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi respublikamiz Prezidentini 19.03.2021 yildagi PQ-5032-sonli qarorini keltirish mumkin.

Ammo yangi ta'lim standartlari asosida malaka talablariga javob beradigan mutaxassislar tayyorlash uchun fizikaviy ta'lim yo'nalishida an'anaviy ta'limdan voz kechib yangi ta'lim texnologiyalari asosida mashg'ulotlarni tashkil qilish, auditoriya va mustaqil ta'lim shakllarini izchilligini ta'minlashda muammolar yuzaga kelmoqda. O'quv dasturlarida halqaro standartlarga ko'ra mustaqil ta'lim shakli uchun boshqa fanlar qatori fizika faniga ham ajratilgan soatlarni 50% dan ortig'ini tashkil etadi. Ana'naviy ta'limda esa auditoriya mashg'ulotlariga ajratilgan soatlar umumiy soatni salmoqli foizini tashkil qilgan. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak hozirgi oliy ta'limga shunday zamonaviy ta'lim texnologiyasi tanlash kerakki auditoriya mashg'ulotlari, ya'ni ma'ruza amaliy mashg'ulot, laboratoriya ishlari va auditoriyadan tashqari kurs ishi, referat, nazorat ishlariga tayyorgarlik kabi mashg'ulotlarni uzluksizligi va uzviyligini ta'minlash kerak. O'rganishlar va tahlillar natijasiga ko'ra hozirda talabalar mustaqil ta'limga ajratilgan umumiy vaqtni 20-30 % ni o'zlashtiradi.

Buning asosiy sabablari sifatida quyidagi omillarni keltirish mumkin:

Auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limni tizimsiz harakterda, chunki uni tashkillashtirish, bajarish, nazorat qilish va baholashga yetarli e'tibor berilmagan;

Talabalarni o'z ustida ishlash faoliyatini mohiyati xaqida yetarlicha tushunmasliklari, chunki o'z ustida ishlash deb aksari talabalar laboratoriya ishini tayyorlash, kurs ishi yozish, oraliq va yakuniy nazoratlarga tayyorlanishni tushunishadi;

Mutaxassislik kafedralarida umumiy fizika, nazariy fizika, matematika va axborot texnologiyatlarini o'z ichiga olgan 3-4 yilga mo'ljallangan yagona strategik ta'lim texnologiyasini ishlab chiqilmaganligi;

Yagona strategik ta'lim texnologiyasini tadbiq qilish uchun professor-o'qituvchilarni tajribasi, metodik-ta'minoti, talabalarni o'quv adabiyotlar va moddiy-texnik ta'minotini yetarli emasligi.

Ushbu muammolar nafaqat respublikamizda oliy o'quv yurtlarining fizik va muxandis – fizik tayyorlaydigan yo'nalishlarga, balki ko'pgina xorijiy davlat oliy o'quv yurtlariga ham tegishli. Ushbu muammolarni samarali bartaraf qilish uchun dunyoning ilg'or universitetlari bir qator chora tadbirlar ko'rmoqda, ya'ni:

oliy ta'limni ilg'or texnologiyalar qo'llaniladigan korxonalar bilan intergallash;

o'quv jarayoniga zamonaviy texnologiyalarga asoslangan o'quv injenerlik ishlanmalarini tadbiq qilish;

o'quv ilmiy tadqiqot ishlarini salohiyati va samaradorligini orttirish, aniq bir maqsadga yo'naltirish;

talabalarni nazariy bilimlar bilan birgalikda ishlab chiqarishda va tadqiqotlarda amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlariga erishish.

Ushbu chora tadbirlar respublikamizdagi oliy o'quv yurtlaridagi bir qator yo'nalishlar, ayniqsa fizika va muhandislar tayyorlanadigan yo'nalishlar uchun ham ahamiyatlidir. Ayniqsa Prezidentimiz topshirig'iga ko'ra mutaxassisliklarni umumiy o'quv rejasi asosida tayyorlashga o'tilgandan so'ng yanada dolzarb hisoblanadi.

Fizika aniq va tabiiy fanlar qatorida ilmiy texnik rivojlanishni ta'minlovchi fundamental fanlardan biri bo'lgani uchun, kelajak fizika o'qituvchilari va fizik muhandislarni, ilmiy hodimlarni sifatli tayyorlashda ilmiy salohiyatli, ilg'or o'qitish metodikasi va kompetensiyasi yuqori professor-o'qituvchini juda chegaralangan auditoriya soatlarida kerakli fundamental bilimlarni bera bilish bilan birga talabalarni mustaqil ta'lim olishlarini samarali tashkil eta oladi.

Ta'lim rivojlangan ilg'or xorijiy mamlakatlar oliy ta'lim sistemasida ham, jumladan AQSH universitetlarida ham ta'lim individual o'qish asosida qurilgan bo'lib ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil ta'limiga asosiy urg'u beriladi [104]. Talabalarning mustaqil ta'limi uchun o'quv soati auditoriya o'quv soati bilan teng bo'lib, har ikkisi uzviy bog'ligini ta'minlangan. Mustaqil ta'lim vaqtida asosan individual ta'limni o'qitishni ta'minlash uchun har bir talaba uzi uchun individual ta'lim trayektoriyasi o'qituvchi yordamida shakllantiradi. Individuallangan ta'lim programmasini loyihalash talabada intellektual tayorgarlikdan tashqari maxsus bilim va ko'nikmalar, yuqori darajada mustaqillik va mas'uliyat xissi bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun boshlang'ich kurslarda barcha talabalar uchun majburiy fanlar belgilanib unda talaba fundamental bilimlarni ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda egallaydi; shu bilan birgalikda talabalar o'z imkoniyatlari darajasida bilim uchun kichik ilmiy tadqiqotlar yoki loyihalar bajarishadi. Yuqori kurslarda esa individual ta'lim trayektoriyasi asosida kichik guruhlarda va professor rahbarligida loyihalar yoki ilmiy-tadqiqotlar bajarishadi.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari maqsadi va yangicha yondashuvlarga oid ilmiy tadqiqotlar tahliliga ko'ra ertamiz yoki kelajak uchun mutaxassislar, jumladan fizik bakalavr tayorlash uchun ta'lim jarayoniga tadbiriq qilinadigan ta'lim texnologiyasi har bir shaxsning imkoniyatlariga ko'ra shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirishni ko'zda tutuvchi strategiyaga ega bo'lishi kerak. Buning uchun so'nggi yillarda respublikamiz, MDX davlatlari va ilg'or xorijiy mamlakatlar oliy o'quv yurtlarida ta'lim jarayoniga tadbiriq qilinib yaxshi samara berayotgan ta'lim texnologiyasi haqidagi ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish katta ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Ю.И. Карякин «Новая парадигма образования «Вестник Томского государственного университета» 2009. № 329 стр 39-44
2. Дудина М.Н. Новая образовательная парадигма: проблемы качество образования, Современные проблемы науки и образования 2006 №5 стр 32-34
3. Геркина. Н.В Изменение парадигмы обучения как основа инновационных процессов высшей школы 2015 №12 Т3 стр 424-426.
4. Bobaxo'jaev U., Ismanova O., Yarimo'tkazgichlar fizikasi mutaxassislarini kreativlik xususiyatlarini shakllantirishda loyihalash faoliyatini ahamiyati.

“Yarim o‘tkazgichli opto- va nanoelektronika, muqobil energiya manbalari hamda ularning istiqbollari” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya. – Andijon, 2023. 12–13 oktabr. B. 362–365.

5. Bobaxo‘jayev U., Ismanova O., Fizika yo‘nalishi talabalarida loyihalash faoliyatini shakllantirishda zarur pedagogik tavsiyalar. Материали международной научной конференции “Тенденции развития физики конденсированных сред” ФерГУ. 30-31октябрь. 2023 г. с.439-441
6. Ismanova O.T. Oliy ta’limda fizika fanidan masalalar ishlashda ta’lim sifatini takomillashtirish usullari. NamDU axborotnoma. 2024 y. 10-son. 744-747 betlar.